

O'ZBEK MILLIY OPERA SAN'ATINING SHAKLLANISHI

Yusupjonova Dilfuzaxon Olimjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti "Vokal va cholg'u ijrochiligi"
kafedrasi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonga opera janrining kirib kelishi va shakllanish jarayonlari va o'zbek operalarida milliy musiqamiz yanada kengaytirilib, talqin etilishi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *opera, libretto, "Bo'ron" operasi, komik opera, "Maysaraning ishi" operasi,*

Opera-musiqali dramatik san'at janri. Opera qorishma (sintetik) janr bo'lib, o'zida bir nechta san'at turlarini mujassam etadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit sahnaviy jarayonda uzviy bog'lanadi.

Lekin musiqa ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Operaning adabiy asosi-librettodagi voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalanir. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon xonandalar ijrosidagi ariya, kavatina kabi tugal musiqa lavhalarida o'z ifodasini topadi. Operaning tuzilishi uning g'oyaviy maqsadiga, syujet xususiyatlariga, musiqiy-ijodiy maktab an'analari va uslublariga hamda kompozitorning ijodiy tafakkuriga bog'liq.¹

O'lkamiz Rossiya tasarrufida bo'lgan paytda Turkiston diyorida rus ziyolilarning yashab turganlari, ularning san'atga bo'lgan qiziqishlari natijasida Toshkentda rus opera teatri ochiladi. Ushbu opera teatrining tashkil topishida asosiy sabablardan yana biri Italiya opera ijodkorlarining 1900-yilda Toshkentga qilgan ijodiy safarlari edi. Italiyalik ijodkorlar Toshkentda jahonga mashhur bo'lgan "Rigoletto", "Traviata", "Trubadur", "Karmen", "Payatsi", "Faust" kabi operalarni rus ziyolilari uchun sahnaga qo'yganlar. Shuningdek, rus ziyolilari o'z konsert dasturlarida g'arb va rus klassik kompozitorlarining simfonik asarlarini operalardan parchalarni, simfonik syuitalarni ijro etishlari bilan rus opera teatrining tashkil topilishida asosiy poyqadam bo'lganlar.

Opera teatrining birinchi spektakllari Dargomijskiyning "Rusalka", Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin" operalari bo'lgan. Opera janrining keng ommaga tarqalib borgani tufayli rus opera teatri sahnasida Verdining "Rigoletto", Gunoning "Faust", Rubenshteynning "Demon", Chaykovskiyning "Pikovaya dama", Musorgskiyning "Boris Godunov", Borodinning "Knyaz Igor", Verdining "Traviata", Aida Puchchinining "Bogema", Rossinining "Sevilskiy seryulnik" asarlari sahna yuzini ko'rdi.

¹ O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000.

Rus opera teatrining san'atkorlari Turkiston viloyatlariga chiqishlar tashkil qilib, opera san'atini o'zbek xalqi orasida targ'ibot eta boshladilar va bu xizmatlar o'zbek operalarini tashkil topishiga turtki bo'ldi.

30-yillarning II yarmidan boshlab ilk o'zbek operalari vujudga kela boshladi. Dastlab, o'zbek kompozitorlari rus kompozitrlari bilan hamkorlikda operalar yoza boshladilar. Bular S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning "Bo'ron" operasi bilan R.Glier va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun" operalari edi.²

"Bo'ron" operasi besh pardali katta asar bo'lib, uning mazmunida 1916-yilda Jizzaxda bo'lib o'tgan o'zbek xalqining chor hukumati bilan bo'lgan to'qnashuvlari o'z aksini topgan. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa ham, lekin o'zbek xalqining ozodlikga chiqish uchun intilishlari asarda asosiy maqsad bo'lib qolgan.

Operaning qisqacha mazmunini (librettosini) Komil Yashin yozgan. Unda ikki tuzim qarama-qarshiligi, xalqlar orasidagi do'stlik aniq o'z ifodasini topgan. Operadagi asosiy qahramon bu xalq. Xalq Bo'ron boshchiligida podshoh tuzimiga qarshi kurashadi.

Operada juda ko'p xalq qo'shiqlari "Gul o'yini", "Girya qozoq", "Chamanda gul", "Tanovar", "Oq oydin kechalar", "Farg'onacha" lar kompozitorlar tomonidan orkestr uchun moslashtirilib asar mazmunini boyitishga sababchi bo'lganlar.

S.Vasilenko bilan M.Ashrafiy bu operani olti oy davomida ijod qilib, 1939-yilning 25-martida yakunlaydilar. "Bo'ron" operasini sahnalashtirishda ancha qiyinchiliklar ham bo'ladi. Birinchidan, bu yangi janrni sahnada ijro etishda xonandalarga noqulayliklar tug'dirdi, chunki musiqali drama bilan opera orasida katta farq bor edi. Lekin shu bilan birga milliy o'zbek og'zaki an'analari bilan bog'liq bo'lgan sahnalar ham ijrochilarga va tinglovchilarga ham maroq bag'ishlagan edi.

"Bo'ron" operasini sahnalashtirishi bu ikki (rus va o'zbek) orasidagi birodarlikni mustahkamlashda va ikki kompozitorlar S.Vasilenko va M.Ashrafiylarning ijodiy hamkorliklarini timsoli bo'ldi.

Opera 1939-yilda Toshkentda sahnalashtirilgandan so'ng o'zbek musiqali drama teatri O'zbek Davlat opera va balet teatriga aylandi. Asosiy rollarni Halima Nosirova (Norgul), Karim Zokirov (Bo'ron), Fotima Boruxonova (Zebiniso) ijro etganlar.

O'zbek operasining dunyoga kelishi bu zamon talabi bo'lib, respublikaning madaniy rivojidadagi yana bir katta poydevor hisoblandi.

"Bo'ron" operasi bilan bir qatorda R.Glier va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun" operasi ijod qilindi va bu asar A.Navoiyning shu nomli poemasi asosida edi.

Kompozitor M.Ashrafiy operani ijod qilishda xalq kuy va qo'shiqlaridan mohirlik bilan foydalangan. Yetti go'zal qiyofasida tojik, eron, hind va arab kuylarini ishlatib, go'zallar obrazlarini yana ham boyitgan.

² A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent-2018. 80-bet.

Faqatgina O'zbekistonda emas, balki butun O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib komik opera janrida asar yozish va xalq orasida ommalashtirish baxtiga kompozitor Sulaymon Yudakov muvaffaq bo'ldi. U kishi Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub "Maysaraning ishi" asariga opera yozdi.

"Maysaraning ishi" operasi bu haqiqiy hajviy janrda ijod qilingan asar bo'lib, bu asarda kuychan, yengil, obrazlar harakteriga mos keladigan musiqalar bastalangan. Ayniqsa, Maysara obrazini ifodalaydigan, ba'zan o'zining oilasi davrasida mehribon xola, jonkuyar ayol, ba'zan esa sharoitlarga ko'ra talabchan va o'tkir xarakterli, dovyurak, qo'rqmas, o'z so'zini ustidan chiqadigan shaxs sifatida operaning asosiy obrazi bo'lib, turli musiqa vositalari bilan ifodalab ko'rsatilgan. Maysara xola ijro etadigan kuy va qo'shiqlar Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Hoy ishchilar" qo'shig'i asosida bastalangan. Chunki, bu kuy Maysara obraziga xos bo'lib, ayolning ichki qiyofalarini ochib tashlashga yordam berishni kompozitor S.Yudakov yaxshi bilgan. Masalan, Maysaraning "Bolalarim hammasi yaxshi bo'ladi" nomli ariyasi so'zimiz isboti bo'la oladi. Shu bilan birga Oyxon, Cho'ponali, Qozi, Xoji Darg'a, Hidoyatxon obrazlari musiqalari ham asar mazmunini ifodalaydigan kuy va qo'shiqlar bilan tasvirlangan.

Kompozitor Sulaymon Yudakov operada o'zbek xalq musiqasidan iqtibos kiritmay, faqat kuy ohanggi va usul doirasi bilan cheklanadi. Ya'ni xalq qo'shiq ashula, lapar, yalla kabi janrlarning xususiyatlaridan mukammal ravishda foydalangan.³

Shunday qilib, opera teatri va opera asarlari oxirgi vaqtda o'z rivojini topdi va bu janr respublika musiqa san'atining yuksalishiga salmoqli hissa qo'shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000.
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent-2018. 80-bet.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent-2018. 93-bet.
4. "Istoriya uzbekskoy muziki". I-II Tom. Toshkent-1972.
5. T.Y.Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent-1981.
6. Uzbekskaaya opera. M. 1963.
7. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.

³ A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent-2018. 93-bet.

8. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
9. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
10. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
11. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
12. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
13. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
14. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
15. Xojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
16. Xojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of Si Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
17. Xojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
18. Xojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРИНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
19. Achildiyeva, M., Xojimatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
20. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

21. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN
22. VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456–5083
23. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
24. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6
25. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 173-179
26. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166
27. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384 11-14
28. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 4-7
29. Mamaziyayev X. Atkiyoeva R. BOTIR ZOKIROV -MILLIY ESTRADANING MUSTAHKAM USTUNI *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 8-12
30. Nasritdinova, M., Nigora, M., & Murodova, D. (2022, February). UZBEK FOLK ART AND ITS PLACE IN PUBLIC LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 44-48).
31. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.
32. Murodova, D. (2022). ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ЁШЛАРДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ. *Science and innovation*, 1(B6), 702-707.
33. Murodova, D. R. Q. (2023). ВО 'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O 'QITUVCHILARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 644-649.

34. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.

35. Durdona, M. (2021, May). ABOUT DUTOR AND HIS PERFORMANCE. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 29-31).

36. Nasretdinova, M., Toshaliyev, D., & Murodova, D. R. Q. (2022). AN'ANAVIY IJROCHILIK SAN'ATINING HOZIRGI DAVR MUAMMOLARI. *Scientific progress*, 3(2), 846-850.

